

HISOBOTLARNI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TUZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Xasanov Baxodir Akramovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor, x.b.a@mail.ru

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

QMII “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti

egamberdiyeva1968@gmail.com;

Erqulov Qobilbek Davro o‘g‘li

QMII talabasi

Annotatsiya

Respublikamizning amaldagi hisob tizimida barcha foydalanuvchilar talabiga mos xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish va uni tahlil qilish jarayonida ko‘plab yechimini kutayotgan muammolarning mavjudligi, mazkur mavzuda ilmiy taddiqot ishlarini olib borilmaganligi tanlangan mavzuni dolzarbliligidan dalolat beradi. Mazkur maqolada “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining afzalliklari va uning ahamiyati hamda hisob tizimidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so’zlar: biznes subektlari, foydaning aniqligi, naqdligi va sifati, Alovida moliyaviy hisobotlar”, “Oraliq moliyaviy hisobotlar”, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Kirish. O‘zbekiston jahon xo‘jaligi tizimining to‘laqonli faol a’zosiga aylanib borgani sayin, xalqaro hisob tizimi mamlakatdagi buxgalteriya hisobining rivojlanishiga o‘z ta’siri ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida mamlakatimiz amaliyotidagi buxgalteriya hisobi ham milliy iqtisodiyotimizning o‘ziga xos xususiyatlari va xalqaro standartlar asosida takomillashib bormoqda. Boshqa sohalar qatorida hisobi tizimidagi turlicha yangi-yangi g‘oyalar, atamalar va qarashlarning, xususan ishlab chiqarish hisobi to‘g‘risidagi turlicha qarashlar yuzaga kelishi buxgalteriya hisobi tizimidagi islohotlarni yanada kengroq doirada davom ettirishni talab etadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Tobora shakllanib, takomillashib borayotgan raqobat sharoitiga mos ravishda ishlab chiqarish faoliyati to‘g‘risida sifat va aniqlik jihatdan barcha talablarga javob bera oladigan hisob tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Mamlakatimizda xalq xo‘jaligida barcha talablarga javob beradigan xalqaro standartlarga javob beradigan moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda uni tahlil qilish jarayonida asosiy omil buxgalteriya hisobi yetkazib berayotgan aniq va to‘g‘ri ma’lumotlar hisoblanadi. Xalq xo‘jaligida xalqaro

standartlarga asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda uni tahlil qilishning amaldagi tizimi ko‘p jihatdan ma’lumotlarni o‘z vaqtida olish imkonini bermaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mazkur mavzuda bir qator iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda, xususan, SamISI dotsenti, S.N.Tashnazarov “Dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy hisobotni MHXSlari bo‘yicha tuzish maqsadga muvofiqdir” deb ta’kidlaydi. [5] Toshkent moliya instituti professorlari A.Karimov, I. Qo‘ziyev, M. Rahimovlar maqolasida “...buxgalteriya hisobining milliy standartlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga qanchalik moslashtirilmasin, agar axborotlar oqimi ochiqlanmasa, biznes subyektlarining real moliyaviy ahvoli, natijalari va ularning o‘zgarishlarini aniq aks ettirish imkonini bo‘lmaydi.” deb ta’kidlaydilar. [4] Bu albatta hisoblashuvlar jarayoniga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Xalq xo‘jaligida barcha foydalanuvchilar talabiga mos moliyaviy hisobotlarni tuzish va uni tahlil qilish jarayonida ko‘plab yechimini kutayotgan muammolarning mavjudligi, mazkur mavzuda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilmaganligi tanlangan mavzuni dolzarbliligidan dalolat beradi.

Tadqiqot maqsadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minalash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish va tahliliy xususiyatlarini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berish.

Ilmiy mohiyati. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning amaldagi an’naviy tartibida xalqaro maydonda rasmiy tan olingan talablar emas, balki ko‘proq milliy iqtisodiyotning ustuvorligi ta’minalanganligi, biznes subyektlari faoliyatining real natijalarini aniqlash, ularning yutuqlarini tan olish, baholash va ochiqlashdagi amaldagi tartiblari iqtisodiy resurslarning bo‘lg‘usi haqiqiy egalari manfaatlariga mos tushmayotganligi ma’lumotlardan potensial foydalanuvchilar manfaatlariga mos tushmaydi.

Hisob tizimidagi mavjud kamchilik va muammolarini o‘rganib, hisob tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirish barcha xisob ma’lumotlaridan foydalanuvchilar uchun hisob ma’lumotlarini tahliliy xuusiyatlarini va muhimligini ta’minalashda ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari. Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan mavzuga oid ilmiy va nazariy yondashuvlar o‘rganilib mushohada qilingan. Tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun yo‘nalish tanlab olingan. Empirik tadqiqotning kuzatish, jamlash, guruhlash va ma’lumotlar manbalari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun hujjatlar to‘plami, moliyaviy hisobotlarning tuzilishini tartibga soluvchi reglament bo‘lib, tashqi foydalanuvchilar tomonidan biror-bir tashkilotga nisbatan iqtisodiy qaror qabul qilish uchun foydalaniladi. YA’ni, bu xorijiy investorlarni mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning (kompaniya, korporatsiya, aksiyadorlik jamiyatları) aksiyalari, qimmatli qog‘ozlari va boshqa turdagι investitsiya jalb qilishi mumkin bo‘lgan moddiy boyliklarning istiqbolda o‘sishi yoki pasayishini tahlil qilishi uchun zarur axborotlar bilan ta’minalash mumkin bo‘ladi.

Biz uchun afzalligi esa mamlakatimizdagi yirik korxonalarga xalqaro moliya bozorlarida ishtirok etish imkonini yaratiladi. Masalan, respublikamizdagi yirik korxonalarining xorij korxonalaridan ularning aksiya va obligatsiyalarini sotib olishi evaziga ushbu korxonalarga investitsiya kiritish, pirovardida korxonani rivojlantirish natijasida Davlat byudjetiga tushumning oshishiga olib keladi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek “Joriy yilda mamlakatimizning xalqaro moliya bozorlariga

chiqish imkoniyatlari yanada yaxshilandi, ilk bor milliy valyutada 2 trillion so‘mlik davlat yevroobligatsiyalari past foizlarda joylashtirildi. Bu yil respublikamizda 197 ta yirik, minglab kichik va o‘rta korxonalar hamda infratuzilma obyektlari barpo etildi.” [3]

Mamlakatimiz hisob tizimini rivojida moliyaviy hisobotlarning o‘ziga xos o‘rnii bor. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarus axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida 2020 yil 24 fevralda “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi belgilandi. [2]

Mazkur qarorga binoan, 18 ta banddan iborat “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangani yurtimizda ushbu yo‘nalishda ham jiddiy ishlarga qo‘l urilayotganidan dalolat beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalarni aniqlash va hisobga olishda quyidagi Buxgalteriya hisobining xalqaro(BHXS) va milliy standartlari(BHMS)dan foydalilanadi:

1-Jadval

Moliyaviy natijalarni aniqlash va hisobga olishda qo‘llaniladigan buxgalteriya hisobining xalqaro(BHXS) va milliy standartlari(BHMS)ning taqqoslama jadvali

T/ p	Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) va ularning maqsadi	Buxgalteriya hisobining milliy standartlari(BHMS) va ularning maqsadi
1	1-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti <i>Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish</i>	1-sonli BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”
2	8-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti <i>Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o‘zgarishlar va xatolar</i>	2-sonli BHMS “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar”
3	10-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti <i>Hisob davridan keyingi hodisalar;</i>	3-sonli BHMS “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”
4	23-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti <i>Qarzlar bo‘yicha xarajatlar</i>	8-sonli BHMS “Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar”
5	27-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti <i>Alovida moliyaviy hisobotlar;</i>	15-sonli BHMS "Buxgalteriya balansi"
6	34-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti <i>Oraliq moliyaviy hisobotlar.</i>	16-sonli BHMS <i>Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keyingi xo‘jalik faoliyatining nazarda tutilmagan holatlari</i>

		<i>va yuz beradigan hodisalari.</i>
7	-	23-sonli BHMS "Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish"
8	-	24-sonli BHMS) «Qarzlar bo'yicha xarajatlar hisobi»

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari uning milliy standartlariga qaraganda ancha mukammalroq.

Ayniqsa buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bilan tartibga solinadigan "Alovida moliyaviy hisobotlar", "Oraliq moliyaviy hisobotlar"ni tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, 27-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Alovida moliyaviy hisobotlar"da qo'shma korxonalar va qaram tadbirkorlik subektlaridagi investitsiyalarga nisbatan buxgalteriya hisobi va ma'lumotlarni ochib berish talablarini 34-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Oraliq moliyaviy hisobotlar" da oraliq moliyaviy hisobotning minimal tarkibini belgilash hamda oraliq davrga tegishli to'liq yoki qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarda tan olish va baholash tamoyillarini belgilashni tartibga solinishi investorlarni talabiga mos ma'lumotlarni yetkazib berishga xizmat qiladi.

Biz xalqaro doiraga, jahon bozoriga intilayotgan ekanmiz, faoliyatimiz ham xalqaro standartlarga mos bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda amaldagi milliy hisobchilik tizimi boshqa davlatlardagi kabi xo'jalik yurituvchi subektlarida hisob yuritishning aniq tartib-qoidalari shakllantirilgan. Bu jarayon O'zbekiston - Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni [1] bilan tartibga solinsa, keyinchalik qabul qilingan boshqa hujjatlar orqali milliy hisob tizimimiz ancha takomillashtirildi. Ammo ushu o'zgarishlarga qaramasdan xo'jalik yurituvchi subektlar boshqaruvi, ular faoliyatni rivojlantirish va moliyalashtirishda yig'ilib qolgan muammolarni hal etishdagi ma'lumotlar bazasi tashqi qiziquvchilar talablariga javob bermasdi. Bu esa ularning e'tiboridan chetda qolishiga asosiy omil bo'lib kelayotgandi. Vaholanki, har qanday biznes anqlik va shaffoflik ta'minlangan joyda rivojlanadi.

Hozirgacha amalga oshirilgan salohiyatga ega ishlar amalga oshirilganligiga qaramay, iqtisodiyotning ochiq emasligi, erishilgan natijadorlik xalqaro maydonda namoyon etilmaganligi, ya'ni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning amaldagi an'anaviy tartibida xalqaro maydonda rasmiy tan olingen talablar emas, balki ko'proq milliy iqtisodiyotning ustuvorligi ta'minlanganligini qayd etish joiz.

Bugungi kunda esa muhit tubdan o'zgardi. O'zbekiston tashqi dunyoga to'liq ochildi. Shu ma'noda, endilikda buxgalteriya va audit sohasi mutaxassislari oldiga hisobdorlikni yangi dunyo munosabatlari tizimiga mos holda yo'lga qo'yish vazifasi yuklanmoqda. Bu borada bir qator muammolar mavjud. Avvalo, biznes subektlari faoliyatining real natijalarini aniqlash, ularning yutuqlarini tan olish, baholash va ochiqligini ta'minlashdagi amaldagi tartiblari iqtisodiy resurslarning bo'lg'usi haqiqiy egalari manfaatlariga mos tushmaydi.

Bundan tashqari, biznes subektlari daromad va xarajatlarining aniq o'lchangan qiymatlari (foydaning anqligi, naqdligi va sifatini ta'minlash) potensial qiziquvchilar manfaatlariga mos tushmaydi.

Milliy hisobchilikda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, taqdim etishdagi o'rinsiz, ortiqcha, qat'iy talablarning belgilab qo'yilganligi, buxgalteriya xodimlarining erkin va kasbiy tajribaga tayangan holda xulosa tayyorlash hamda ularni manfaatdorlarga taqdim etish imkoniyatini bermaydi. Bu biznes vakillari real holatni o'zları istagan tarzda emas, ular foydalanayotgan resurslar egalari istagan tarzda ko'radi,

deganidir.

Yana shuni alohida qayd etish kerakki, mamlakatimizda buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda tashqi nazoratga ustunlik berilgan. Odatda nazoratning ichki turiga ko‘proq ahamiyat qaratish talab etiladi. Chunki ichki nazorat to‘g‘ri va samarali tashkil etilsa, tashqi nazoratga zarurat qolmasligi xalqaro standartlarning eng muhim sharti hisoblanadi.

Xalqaro tajribalardan ma’lumki, buxgalteriya hisobining milliy standartlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga qanchalik moslashtirilmasin, agar axborotlar oqimi ochiqlanmasa, biznes subektlarining real moliyaviy ahvoli, natijalari va ularning o‘zgarishlarini aniq aks ettirish imkonii bo‘lmaydi.

Prezident qarori O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish hamda buxgalteriya sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Shundan kelib chiqib, biznes subektlari tomonidan qo‘llanilayotgan va yuritilayotgan buxgalteriya hisobi taomillarida xalqaro normalarga nomuvofiqlik darajasining ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tsak. Avval biznesning real, potensial qiymatini aniqlashga mulkdorda ham, davlatda ham qiziqish bo‘lmagan. Muvaffaqiyatli bitimlarga kelishishda biznes hisob tizimining auditorlik xulosasi hech qanday ta’sirga ega emas. Ichki nazoratni yo‘lga qo‘yishning amaldagi tartibi boshqaruv sifatiga bog‘lanmagan.

Xalqaro standartlar rasmiy e’lon qilinadigan hisobotlarda biznes, boshqaruv va faoliyat natijadorligini obektiv hamda real aks ettirishga, biznesning davomiyligi, rivojlanish va taraqqiyotning muhim tendensiyalarini aniq ko‘ra bilishga imkon beradi. Bu esa jalb qilinadigan tashqi investitsiyalar hajmini oshirishga, xalqaro aloqalar mustahkamlanishiga, salohiyatli xaridorlar guruhi shakllanishiga, umuman, xalqaro doirada nufuz oshishiga zamin yaratadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish, korxona va tashkilotlarning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holatini, ularning o‘tgan davrlardagi moliyaviy natijalarini qiyosiy o‘rganish va obektiv baholash orqali kelgusidagi faoliyatni kengaytirish, tashqi moliyaviy manbalarni izlab topish, xalqaro moliyaviy institutlardan kapital jalb qilish imkonini beradi.

Mazkur islohotlar, birinchi navbatda, yirik biznes subektlarining MHXSga o‘tishlariga qaratilgan “Yo‘l xaritasi” bo‘lib, ularda an’anaviy tarzda amalga oshirib kelingan hisob tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqilishini nazarda tutadi. Xususan, ushbu “Yo‘l xaritasi”da mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatları, tijorat bankları, sug‘urta tashkilotları va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishlari, 2021 yil yakunidan boshlab, moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashlari belgilab qo‘yildi. Hujjat albatta, buxgalterlar, auditorlarning professional tajribalariga ko‘proq tayanishga, erkin bo‘lishga, ya’ni yagona qolipdan chiqishga ham undaydi. Shu bilan birga, biznes subektlari to‘liq xo‘jalik operatsiyalarini, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan, muvofiqlashtirilgan amaldagi normalar asosida yuritishni yo‘lga qo‘yadilar.

Albatta, o‘zlarining moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiq tayyorlaydigan biznes subektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot taqdim qilishdan ozod etiladilar.

Xulosa sifatida aytganda, bugungi kunda kompaniyalarda moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tuzishga obektiv zaruratlar mavjud. Qonunda ko‘zda tilgan tartibda MHXSlarini qo‘llash tartibi joriy etildi. Dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarini jalb qilish uchun moliyaviy hisobotni MHXSlari bo‘yicha tuzish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan kompaniyalar soni oshib

bormoqda. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqat MHXS larga o‘tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda ilg‘or instrumentlar va tajribalardan foydalanish hozirgi davrning dolzarb masalalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 1.O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni. –T.: 2016 13 aprel.
2. O‘zbekiston REspublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4611-sonli qarori. 24.02.2020 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so‘zi, 2020yil 30 dekabr 276 (7778).
4. Akrom Karimov, Islom Qo‘ziyev, Matnazar Rahimov “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Unga moslashish yo‘lida qanday chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan? ” “Xalq so‘zi” onlayn gazeta 18:20 13 May 2020yil . <https://xs.uz/>.
5. S.N.Tashnazarov Moliyaviy hisobotning MHXS bo‘yicha transformatsiyasi zarurati, mohiyati va bosqichlari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 3, mayiyun, 2017 yil.
6. Jakhongir, O. (2022). FINANCIAL POLICY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 592-597.
7. Jakhongir, O. (2022). WAYS OF DEVELOPING THE FINANCIAL MARKET. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(9), 569-574.
8. Ikromovich, R. Z., Murtazaevna, K. Y., Rashidovich, M. N., & Oramov, J. J. FEATURES OF THE CREDIT MECHANISM OF INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS.
9. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 42-47.
10. Эгамбердиева, С. Р. МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ. «ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ: МУАММО, ТАҲЛИЛ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами 20-21 май 2021 й, 460.
11. Jumayeva, G. J. R., & qizi Sultonova, M. O. (2022, December). FERMER XO ‘JALIKLARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARNI HISOBBLASH YO ‘LLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 18, pp. 127-130).
12. Tursunov, I., Jumayeva, G., & Ostanov, K. (2017). Features of innovation development of the economy Uzbekistan. In *International conference on scientific development in North America* (pp. 43-49).
13. Равшанов А. Д. Абдисалом Дусиёрович, Хасанов Шамсиддин Хафизович, & Алимханова Нигора Алимхановна (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари. Экономика и финансы (Узбекистан), (11), 9-14.

14. Murodova, N. U., Temirova, F. S., Alimkhanova, N. A., Dostova, M. K., & Azimova, K. E. IMPROVING THE CALCULATION OF INVENTORIES OF GOODS IN ACCOUNTING.
15. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Innovatson texnologiyalar*, 1(04), 108-111.
16. Azimova, H. E. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF FOREIGN TRADE WITH THE HELP OF FOREIGN INVESTMENTS. *Gospodarka i Innowacje*., 29, 183-188.
17. Эгамбердиевна, А. Ҳ. (2021). ХОРИЖЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
18. Azimova, H. E. (2022). INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS. *Gospodarka i Innowacje*., 29, 178-182.
19. Azimova, H. E. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF FOREIGN TRADE WITH THE HELP OF FOREIGN INVESTMENTS. *Gospodarka i Innowacje*., 29, 183-188.
20. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(1).
21. Музаффарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
22. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & HAKIMOVICH, B. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.
23. Khakimovich, B. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
24. Farmanov , J. Z., Rimboyeva , N. X. qizi, & Rimbayeva , G. X. qizi. (2023). QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 1(1), 231–236. Retrieved from
25. Farmanov J. UKRAINIAN EXPERIENCE IN DEVELOPING THE BEEKEEPING NETWORK IN OUR COUNTRY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 09. – С. 66-69.
26. Ochilov, A. O., Ostonov, E., Shodiev, B. T., Ergashev, T. S., & Khakkulov, F. F. (2022). Modern Approaches To Management Of Training Of Highly Qualified Personnel In The New Uzbekistan Higher Education System. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2432-2442.
27. Шодиев Б.Т. ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩ // Экономика и социум. 2022. №10-1 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prioritetnye-napravleniya-effektivnogo-ispolzovaniya-pastbisch> (дата обращения: 28.02.2023).
28. Бердиев, А. X., & Расулов, X. K. (2020). Туризм-перспективный сектор экономики Узбекистана. *Economics*, (2 (45)), 14-18.
29. Hakimovich, B. A. (2021). Prospects for Innovative Agricultural Development. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 350-356.

30. Туробов, Ш. А. (2021). ҚИШЛОҚ УЙ ХҮЖАЛИКЛАРИДА АЁЛЛАР МЕХНАТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
31. Turobov, S. A., & Faxriddinov, B. F. (2021). DEVELOPMENT OF HOME-ENTREPRENEURSHIP-GUARANTEE OF AGRICULTURE STRATEGY. *International journal of trends in marketing management*, 9(1).
32. Усанов, А., & Раҳмонқул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг тутган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 55-60.
33. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИФИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and education*, 24(2), 272-278.
34. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO 'JALIGIDA AGROKASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 390-394.
35. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
36. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
37. Aliqulova, A. (2020). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF SECURITIES OF COMMERCIAL BANKS AT THE RSE "TASHKENT". *International Finance and Accounting*, 2020(1), 13.
38. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностранные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
39. Хуррамов, А. (2012). О монографии ИС Абдулаева «ПРОГНОЗИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА». *ва молия Экономика*, 50.
40. Хуррамов, А. Ф. (1993). Арендные отношения и пути их совершенствования в условиях перехода к рыночной экономике (на примере хлопководческих совхозов).
41. Узоков, Н., Хушмурадов, О. Х., & Бабаева, Л. (2014). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИИ В МОДЕРНИЗАЦИИ И РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *ФЕНОМЕН РЫНОЧНОГО ХОЗЯЙСТВА: ОТ ИСТОКОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ* (pp. 376-378).
42. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje*, 29, 202-206.